

89

-sonli shartnoma

«Iste'molchi»larga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish uchun

«21 » 01 2022y.

Farg'ona sh

Ushbu shartnoma «Farg'ona suv ta'minoti» M.Ch.J Farg'ona shaxar bo'limi, keyingi o'rinnlarda «Ta'minotchi» deb yuritiladi. Nizom asosida faoliyat yurituvchi Tojiboyev Maxmudjon Mavlonjonovich shaxsida, bir tomonidan va keyingi o'rinnlarda «Iste'molchi» deb yuritiluvchi

*Garzona viloyat Fotolographotomiya  
Tolmotoz Ismon xatmiyotich asosida ish olib boruvchi direktor*

ikkinchini tomonidan, quyidagilar haqida tuzildi:

#### I.Shartnoma predmeti

1.1. 2022-yil uchun suv yetkazish hajmi uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq yuridik tashkilotlari (bundan buyon matinda II guruh «Iste'molchi» lari deb yuritiladi) uchun suv yetkazish

2014,75 narx bo'yicha 69 m3ni:

1m3 ichimlik suv uchun narxi 1495 so'm, (+QQS 15%) 50 so'm, Jami 1545 so'm (50 so'm maxsus ustama xaqjni;

1 m3 oqova suv uchun 419.75 so'm (+QQS 15%), 50 so'm 469.75 so'm (50 so'm maxsus ustama xaqjni)  
Jami 2014 so'm 75 tivin tashkil qilmoqda.

Shu tariqa shartnomaning umumiy qiymati 124914.5 so'mni tashkil qildi.(summa yozuv bilan)

Shu jumladan, budjet mablag'laridan 124914.5 so'm, budjetdan tashqari mablag'laridan \_\_\_\_\_ so'm budjetdan tashqari mablag'lardan to'lanishi ko'zda tutilgan.

II guruh iste'molchilari Qoidalarda belgilangan tarzda "Ta'minotchi" tomonidan taqdim qilingan hisobvaraql-fakturalarga asosan, Moliya vazirligi G'aznachiligi orqali suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish uchun o'tkazilgan mablag'lar orqali amalga oshiriladi.

1.2. «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ni sifatlari ichimlik suv bilan ta'minlash va «Iste'molchi»dan oqova suvlarni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. «Iste'molchi» «Ta'minotchi»ga ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarini xar oyning 10 sanasigacha 100 foizlik oldindan haq to'lash tariqasida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning ichimlik va oqova suv xizmatlari bo'yicha shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-soni qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalari"ga (keyinchalik matnda - Qoidalar deb yuritiladi), hamda mahalliy hokimiyat tomonidan tasdiqlanadigan maxsus ustama haqi 1m3 ichimlik suv uchun \_\_\_\_\_ so'm, 1m3 oqova suv xizmati uchun \_\_\_\_\_ so'm bilan birga «Ta'minotchi» tomonidan taqdim qilingan ichimlik va oqova suv tizimiga ularish uchun ruxsat etuvchi hujjatlarga roya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

## II. Umumiy qoidalar

- 2.1. «Iste'molchi» «Ta'minotchi» tashkiloti ruxsati bilan va u texnik imkoniyatlarni mayjud deb topgan holattarda, o'z tasarrufidagi ichimlik va oqova suv tarmoqlaniga, inshoot va qurilmalarga subiste'molchilarining ulanishiiga ruxsat berish huquqiga ega.
- 2.2. «Iste'molchi» bilan subiste'molchi o'rtasida to'lov masalalarida paydo bo'ladigan nizolar «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan ko'rib chiqilmaydi.
- 2.3. Agar «Iste'molchi» va unga ulangan subiste'molchi turli guruh va toifali iste'molchilariga mansub bo'lsa, «Ta'minotchi» tashkiloti bilan shartnomani «Iste'molchi» ham, subiste'molchi ham tuzadi va svuni hisobga olish priborini o'matish har ikkalasi uchun foydalaniishiiga quyidagi istisno holatlarda yo'1 qo'yiladi: irrigatsiya suvi bo'lmaganda, ta'minotchi tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan jadval bo'yicha, faqat tungi vaqtida (soat 00-00 dan soat 05-00 gacha) yo'1 qo'yiladi.
- 2.4. Ichimlik suvdan dov-daraxtlanmi tug'orish uchun foydalaniishiaga quyidagi istisno holatlarda yo'1 qo'yiladi: irrigatsiya suvi bo'lmaganda, ta'minotchi tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy agentligi tomonidan tekshirilip plombalanadi, hamda «Ta'minotchi» tomonidan plombalanishi tozim. Shuningdek, ichimlik suvini xisobga olish priborini yechish, qyoslashdan o'kazish va o'matish qonunchilikta belgilagan tartibda amalga oshiriladi.
- 2.7. «Iste'molchi»ga o'rnatilishi lozin bo'lgan suv o'chash priborining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, ob'ekting maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi hamda «Iste'molchi» bilan kelishiladi. Hisoblash pribori uchun o'rnatilgan minimal iste'mol miqdorida kam miqdorda suv iste'mol qilinganda, «Ta'minotchi» xodimi suv o'chash tarmog'ini qaytadan qurilma bilan ta'minlash uchun ko'rsatma beradi, ushu ko'rsatma bajarilmaganda, hisoblash priborining ko'rsatkichlari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarda o'mailigandiriladi.
- 2.8. Ichimlik va oqova suv xizmatlari xo'jaligining rekonstruksiyasi, hisoblash priborlarini ishga tushirish, hisoblash priborlarini almashtirish, yangi subiste'molchilarining ulanishi «Iste'molchi» tomonidan faqat «Ta'minotchi» tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular «Iste'molchining» so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ro'ya qilgan holda beriladi. «Ta'minotchi»dan olingan texnik shartlar asosida, «Iste'molchi» buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yor, qoidalari va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.
- 2.9. Qurilgan ularnalarning ishga tushirilishi «Ta'minotchi» tomonidan, «Iste'molchi» va qurilish tashkiloti vakillarining ishtirokita amalga oshiriladi.
- 2.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun tariflar va ustama haq miqdori o'zgargan sanasidan qat'i nazar, ushu xizmatlar yuzasidan «Iste'molchi» bilan tuzilgan shartnomaga o'z qurilish, ular kiritilgan sanadan e'tiboran to'lovlanishi amalga oshirishi shart.
- 2.11. Quyidagilardan «Ta'minotchi» tashkilotlari bilan «Iste'molchilar shu jumladan, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari o'tasidagi, ichimlik va oqova suv xizmatlari tarmoqlari, inshootlari xanda qurilmalanga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatini saqlash va foydalanimish yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi:
- a) ichimlik suv iste'moli uchun — tarmoqqa ulanishini uzib qo'yuvchi kirish qilishi. Kirish qififi bilan ichimlik suvga ulanish, «Iste'molchining» ichki ichimlik suvi tizminining bir qismi hisoblanadi;
- b) oqova xizmati uchun — «Iste'molchi» oqova tizminining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral oqova tarmog'iga ulanish nufasidagi chiqaruv qudug'i. Agar chiqaruvchi oqova qudug'i (kamerasi) magistral oqova tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ushu quduq «Ta'minotchi» tashkiloti oqova tarmog'ining bir qismi

hisoblananib, unga tutashiruvchi foydalanimish chizig'i esa «Iste'molchi»ning mablag'larini hisobidan amalga oshiriladi.

## III. Taraflarning huquq va majburiyatları

### 3.1. «Iste'molchi» ning huquqlari:

- 3.1.1. Tegishli siyat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish tashkilotlari bajaramaganligi uchun «Ta'minotchi» tashkilotidan qonunchilikda va shartnomaga shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penyal) tar to'lashni tafab qilish;

3.1.2. «Ta'minotchi» tashkilotini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogoohlantirigan holda va ushu muddatda suv ta'mindi yoki oqova suvni chidaris bo'yicha ko'satilgan xizmatlarni uchun to'lovlarini to'liq amalga oshirigan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

3.1.3. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarining holati, qarzlanning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotomani shaxsan yoki o'z vakkil orqali beypul olishi;

3.1.4. «Ta'minotchi» tashkilotidan ichimlik va oqova suv xizmatlari hajjni va sifati, ularni analga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni beypul olishi;

3.1.5. Ichimlik va oqova suv xizmatlari ko'rsatilmayganligi yoki ualarning past sifatida ekanligi to'g'risidagi dalolatnomada taqdim etilgandan keyin 18 soat mobayindida «Ta'minotchi» tashkilotidan nosozlik va kamchiliklarni barrafat etish bo'yicha ma'lumotlarni olish;

3.2. «Iste'molchi» ning majburiyatları:

3.2.1. Oqava tarmog'ida avariya bo'lgan taqdirda yert'o'la xonalarni suv bosishidan saqlaydigan barcha o'thinchuchi qurilmalarning but saqlanganligi, ishga yaroqlijigi va normal texnik holatda bo'yishini ta'minlash;

3.2.2. Iste'molchiga qarasli sanitariya asboblari, oqava tarmoqlari, inshoot va qurilmalarda

tambaning yo'qligi, revrziyalarning zinch yopilmasligi, nosoz texnik holati tufayli iste'molchining oqava tarmoqlarida yoki «Ta'minotchi» tashkilotida, ichimlik suv va oqovaning tasiqi tarmoqlarida avariya (tiqib qolish, suv bosish) sodir bo'lishi sababl yerto'la xonalarni suv bosishi oqibatida yetkazilgan zararni qoplashi;

3.2.3. «Ta'minotchi» tashkiloti bilan hisob-kitob qilish uchun foydalanimish suvni hisobga olish pribori, aylamma linija zulfini, yong'in zulfinlari, g'dranitar va uning hududida yoki tasarrufida bo'lgan hamda «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalari uchun tarmoqlarning butligi va saqlashi;

3.2.4. «Ta'minotchi» tashkilotiga ichimlik va oqova suv tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarning shikastanishi turayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlik;

3.2.5. Ichimlik suvi ta'minotining yong'inga qarshi tizmidan foydalanimish to'xatilganda «Iste'molchi» 24 soat mobaynidagi «Ta'minotchi» tashkilotiga plomba uzilgani to'g'risida dalolatnomada taqdim etishi va zulfinlarni plombalash uchun «Ta'minotchi» tashkiloti vakilini chadurish;

3.2.6. «Ta'minotchi» bilan tuzilgan shartnomaga muvoqif majburiyatlariga ro'ya qilish, har oyning 23 dan 25 gacha sanasida ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va antiq yechib olish hamda ushu ko'rsatkichlarni «Ta'minotchi»ga kechikmagan holda taqdim qilish va to'lovni amalga oshirish;

3.3. «Ta'minotchi» ning huquqlari:

3.3.1. «Ta'minotchi» tashkiloti, iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirigan holda, quyidagi holatlarda svuni uzatish va oqova suvlarini qabul qilishini to'liq va qisman to'xatishim munkin: a) «Iste'molchining» tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qonutqarsiz bo'lganda va «Ta'minotchi» tashkiloti vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanimishda xatoliklarni barrafat etish bo'yicha «Ta'minotchi» tashkiloti talabari iste'molchi tomonidan bajarilmaganda;

b) «Ta'minotchi» tashkiloti mansabtor shaxsi iste'molchining suvni hisobga olish uzelgi, ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarni nazorat qilish hamda svuni hisobga olish pribori

ko'rsatkichlarini qayd etish, plombalarni o'matish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitidan ko'p sarf qilginganda suv berisini muvofiqi lashirish va «*Ta'minotchi*» tashkiloti naryadlari bo'yicha boshqaga ishlarni bajarish uchun kejganda iste'molchi tononidan assosiz ravishda kiritilmaganda;

v) «*Ta'minotchi*» tashkiloti tononidan iste'molchi ulagan ichimlik va oqova suv tarmoqlari,

qurilmalarida rejali-o'gohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'satish ishlari o'tkazilganda,

shuningdek, yangi iste'molchilarni ulash ishlari analga oshirilganda;

g) «*Iste'molchi*» tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tizimlari yoki tarmoqlariga subabonenlarning o'zboshimchalik bilan ulangani aniqlanganda;

d) «*Iste'molchi*» tononidan ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda haq to'lammaganda;

e) «*Iste'molchi*» tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, qurilmalariga

«*Ta'minotchi*» tashkilotidan ulanish uchun belgilangan tartibda ruxsatnomaliga olgan subabonenlarning tegishli tartibda ulanishi rad etilganda;

f) «*Iste'molchi*» tononidan shartnomalarga shartlari bajarilmaganda va u oqizilayotgan oqova suvlar midori va tarkibi bo'yicha shartlarga rioya qilmaganda.

3.3.9. «*Ta'minotchi*» tashkiloti quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmasdan suv uzatishni to'liq yoki qismanan to'xtatishga haqli:

a) «*Ta'minotchi*» tashkilotining elektr ta'minoti to'xtatilganda;

b) Tabiy ofatlar ro'y berganda;

v) Avvariya holatlardan;

g) Yeng'in chiqiqan joylarga suv uzatishni ko'paytirishga zarurat tug'ilganda.

3.4. «*Ta'minotchi*»ning majburiyatini:

3.4.1. Suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnomalarga shartlarini bajarish;

3.4.2. Ichimlik va oqova suv tarmoqlarining texnik holatini mintazam ravishda nazorat qilib borish;

3.4.3. Tarmoqdagi ichimlik suv sifati monitoringini olib borish;

3.4.4. Iste'molchilarning ichimlik va oqova suv tizimlari uchun belgilangan limitida suv va oqova tarmoqlari, inshoottari hamda qurilmalarining holatini va ulardan foydalaniishini mintazam ravishda nazorat qilib borish, ulardan samarallari foydalaniishni tashkilishitirishda iste'molchilarga amaliy jordam ko'satish;

3.4.5. Iste'molchilar tononidan suvni behuda sarflining oldindini olish, sanoat korxonalarini va ularga tenglasitirilgan korxonalarida suv berish bo'yicha belgilangan limitida suvni behuda sarflining oldindini olish, sanoat korxonalarini va ularga tenglasitirilgan korxonalarida suv berish bo'yicha belgilangan limitida suvni behuda sarflining oldindini olish;

3.4.6. Suv iste'moli belgilangan me'yor (limit)lardan ortib ketgan holatlarda «*Ta'minotchi*»

tashkilotanga belgilangan tariflarga nisbatan ortitiluvchi 10,0 koefitsiyentini qo'llash;

3.4.7. Oqova suv tizimiga ozqizayotgan oqovalarning sifati monitoringini ta'minlash;

3.4.8. Shartnomalarga muvofiq o'z majburiyatini bajaralma olmagan holatlarda iste'molchiga penya hisoblash;

3.4.9. Iste'molchilarning shartnomalarga rioya etishmagan masalasi bo'yicha sud organlariga murojaat qilish;

3.4.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarining holati, qarzlanming yo'qligi haqidagi ma'lumotlari iste'molchilarga bepul taqdim etish;

3.4.11. Ichimlik va oqova suv xizmatlari tarifanidagi o'zgarishlar haqida ular amalda joriy qilinishidan 15 kun avval omaviy axbonot vositalari yordamida iste'molchilarni xabardor qilish;

3.4.12. Ichimlik va oqova suv xizmatlari ko'satishida ro'y berishi mumkin bo'lgan rejali to'xtatish va uzilishlar haqida iste'molchilar uzilishlar boshtlangungacha 10 ish kundan kechikmay ogohlantirish.

#### IV. Taraflarning javobgarligi

4.1. «*Ta'minotchi*» ushbu shartnomaga muvofiq majburiyatlarini bajarmaslikda yoki lozim darajada bajarilмаган holatlarda kelib chiqqan zarani, «*Iste'molchi*» esa yetkazigan haqiqiy zarar o'mini qoplashi

shart.

4.2. «*Iste'molchi*» quyitagilgari uchun javobgardi:

a) Ichimlik suvni hisobga olish pribori plombalari butigi, aylanish chiziq'i jo'mragi gidrani va boshqaga ishlarni bajarish uchun kejganda iste'molchi tononidan assosiz ravishda kiritilmaganda;

b) Suv tarmoqlangan o'z boshinchcha ulanib olish, sovuq suvni hisobeiga olish qurilmalarining qasdan buzilishiga yo'i qo'yish hamda suv hisoblash priborlaridagi ko'rsatkichlarni tashqaridan aralashgan holatlari uchun;

c) O'zboshimchalik bilan qurilgan inshootlar sababli tarmoqlardagi avariyalar bo'lgan holatlarda, tarmoqlangan suv hisoblash priborlaridagi bo'lgan holatlarda;

d) Drenaj tizmi mayjud bo'sa «*Iste'molchi*» hujjalarning tashkilotining qurilmalarining qurilmalarining quruvlarning tushishiga yo'i qo'ymaslik. Ushbu qoidabuzarlik aniqlanganda «*Ta'minotchi*» o'matilgan tartibda dalolatnomaliga tuzdi va ushbu dalolatnomaliga «*Iste'molchi*»ning mas'uliyat va javobgarlik chorasisini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

e) Qonunchilikda o'matilgan bosqcha holatlarda;

f) Amladagi me'yoriy-huquqiy hujjalarning talablariga muvofiq va qonunchilikda o'matilgan bosqcha holatlarda;

g) «*Ta'minotchi*» quyidagi holatlarda javobgardi:

a) Amalga me'yoriy-huquqiy hujjalarning talablariga muvofiq va qonunchilikda o'matilgan bosqcha holatlarda;

b) «*Iste'molchi*»larga ichimlik va oqova suv xizmatlariidan foydalanimish uchun zarus bo'lgan texnik shartlarini o'z vaqida va ishonchli taqdim qilinishi uchun;

c) «*Iste'molchi*»ning hayoti, salomatig'i va mol-mulkiga yetkazilgan zarar, ma'navy zarar uchun qonunchilikda o'matilgan tartib va miqdorda qoplash;

d) Shartnomalarga shartlari va yuklatilgan majburiyatni bajarmaslik.

#### V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovlarining tartibi

5.1. Ichimlik va oqova suv ta'minoti tizimidan chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi hisoblash pribori mayjud bo'lganda, hisobga olish priborining ko'rsatkichlariga muvofiq amaladagi tariflar bo'yicha QSNSni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

5.2. «*Iste'molchi*» ichimlik va oqova suv xizmati uchun hisobga olish pribortari mayjud bo'lganda oxirgi uch oyning o'rtacha safi bo'yicha keying'i oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar oldindan haq to'lashni amalga oshirishlari lozim.

5.3. To'lovning shartnomada belgilanganidan kechkitirilgan har bir kuni uchun iste'molchi penya to'lavdi. Ammo bu ko'rsatkich jami kechkitirilgan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.4. «*Iste'molchi*» keying'i oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to'lovlarini amalga oshirmsalar, iste'molchilarni yozma ravishda xabardor qilgan paytdan boshlab besh ish kuni o'gandan keyin qazlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iste'molchilarni ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati tarmoqlaridan uzib qo'yish yo'lli bilan undirish choralarini ko'radi.

Bunday holatlarda yong'indan saqlanish va sanitariya holatlari uchun javobgarlik to'liq «*Iste'molchi*» zimmasiغا yuklatiladi. Suv ta'minoti va oqova suv chiqarish tizimidan ilgar uzib qo'yilgan holatlarda qayta ulashda «*Iste'molchi*»dan bazariv hisoblash miqdorining 10 (0 n) barobari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga osningan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali undiriladi.

5.5. Oqova tizimiga kelib tushuvchi oqova suvning miqdori, ichimlik suv tarmoqidan yetkazib beriladigan ichimlik suv miqdoriga teng. Markazlashgan issiq suv ta'minoti mayjud bo'lgan holatlarda, iste'molqiluvchi ichimlik suv miqdoriga oqova suv tarmoqlari xisobi uchun 2,0 koefitsiyenti qo'llaniladi. «*Iste'molchi*»ning o'zida suv ta'minotining qurilmalari mayjud bo'lsa, oqova suvlarning miqdori ushbu suv qurilmalarning mahsulдоригига (o'matilgan var ro'yxatiga olingan hisoblash priborlarining ko'rsatkichlariga) ko'paytiriladi. Ichki suv ta'minoti tizimi «*Iste'molchi*»ning shaxsiy avtomom manbasini bilan bog'i qo'shasligi lozim.

5.6. Ob'ekti egasi avtomom suv ta'minoti (quduq, ochiq suv olish havzasini, irrigatsiya tizimini)ga va

(yoki) markaziy oqova tizimidan boshqa oqova tashlash manbalariga ega bo'lgan holatlarda «Ta'minotchi» tashkiloti bilan shartnoma tuzish uchun maxsus tabiiy suv ob'ektlaridan maxsus suv olish yoki iste'mol qilish uchun ruxsatnomani qo'shimcha ravishda taqdim etishi zarur.

5.7. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (artezian skvajinasini, quduq, ochiq suv havzasini, irrigatsiya tizimi va boshqalar) mayjud bo'lganda oqova tizimiga oqova suvlarni oqizish uchun to'lovlar o'matilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'matilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash priborining ko'sratkichlari asosida amalga oshiriladi. «Iste'molchi»ga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi shart.

## VI.Aloxida shartlar

6.1. Ob'ekt egasi o'zgarganda iste'molchi chiqib ketishidan 7 kun avval mayjud qarzlarini to'lab, bu haqda «Ta'minotchi» tashkiloti bilan dalolatnoma imzolashi shart. «Iste'molchi» chiqib ketgach sunvi hisobga olish pribori, plombalarning butligi va qoplanmagan debitor qarz dorlik uchun javobgarlik ob'ektning yangi egasi zimmasiga yuklanadi.

6.2. Yetkazib berilgan yoki qabul qilingan ichimlik suvi xajmi quvurning o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqib oyning kalendar kunlari hisobidan quydagagi formula asosida hisoblanadi:

bunda: M – 0,60ga teng bo'lgan zulfin orqali suv sarfi koeffitsiyenti;

F – suyuqlik oqib o'tadigan quvur yoki teshik kesimi maydoni (ichki diametr bo'yicha) $m^2$  ;

g – 9,81 m/sek ga teng bo'lgan erkin tushish tezligi;

N – suvning metrlardagi bosimi;

t – vaqt- 24 soat, sekundlarda.

Quyidagi holatlarda yuqoridaagi formula asosida hisoblanadi:

6.2.1. «Iste'molchi»da suv o'lhash pribori va moslamalari yo'q bo'lgan holatlarda (yoki nosoz xolatda);

6.2.2. Suv o'lhash pribori yoki moslamasi «Ta'minotchi»da ro'yxatdan o'tmagan taqdirda;

6.2.3. Ichimlik suvi bilan o'zboshimchalik bilan foydalanganda;

6.2.4. Suv o'lhash pribori, moslamasi ishdan chiqqan, singan, buzilgan holatda, sarflangan suv hajmi so'nngi tuzilgan dalolatnoma muddatidan yangi suv o'lhash pribori o'matilgan (ro'yhatdan o'tkazilgan) kungacha hisoblanadi;

6.2.5. «Ta'minotchi»ning suv o'lhash bo'g'inini diametiri kichikroq bo'lgan moslamaga almashtirish to'g'risidagi talabnomasi qondirilmagan va bajarilmagan holatlarda;

6.2.6. Suv o'lhash priborining hisob-kitobini olib borish bo'g'inidagi qo'yilgan himoya qoplamiga (plombaga) ruxsatsiz tegilish natijasida, ichimlik suv sarfini aniqlash imkoniyati chegaralanganda;

6.3. Ichimlik va oqova suv tizimlariga (jumladan yong'indan saqlanish gidrant va quvurlariga) o'zboshimchalik bilan ulanib olingen va foydalilanigan holatlar aniqlanganda «Ta'minotchi» tomonidan dalolatnoma tuziladi va shu tuzilgan dalolatnoma o'zboshimchalik bilan ulanib olgan shaxsning javobgarligi darajasini aniqlash va «Ta'minotchi»ga yetkazilgan zararni hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda:

- to'lov muddati, eng so'nngi tuzilgan dalolatnoma sanasidan o'zboshimchalik bilan ulanib olingen kun sanasigacha yoki yangi suv o'lhash pribori o'rnatilib, ro'yhatdan o'tkazilgan kungacha yoki o'zboshimchalik bilan ulanish uzib tashlangan kunga qadar hisobga olinadi;

- o'zboshimchalik bilan ulanib olingen sanadan bu haqda ma'lum bo'lgan sanagacha, agar «Ta'minotchi» balansdagi tarmoqlarga ulanish sodir etilgan bo'lsa, bu muddat da'vo arizasi yozilgan muddatdan oshmasligi zarur. Agar o'zboshimchalik bilan ulangan sanani topish, aniqlash mumkin bo'limsa, bu muddat da'vo muddatiga teng deb olinadi.

6.4. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obektni loyxalashtirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni

olishi zarur.

Texnik shartlari mavjud bo'limgan holda yoki muddati o'tgan holda, «Ta'minotchi» tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.

6.5. «Iste'molchi» ichimlik va oqova suvni tarmoqlariga ularish sanasi haqidagi hujjalarni taqdim etmagan holatlarda «Ta'minotchi» tomonidan xokim qarori va kadastr hujjalari hamda shu kabilar asosida hujjat bilan tasdiqlangan ularish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.6. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlar «Ta'minotchi» tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida ularga xizmat qiluvchi banklar orqali amalga oshiriladi. Bu to'lovlar «Iste'molchi» tomonidan 3 kunlik muddat ichida akseptsiz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda «Ta'minotchi» kechiktirilgan to'loving har bir kuni uchun 0,4 foiz penya yozadi va uning umumiy qiymati asosiy to'loving 50%dan oshmasligi lozim.

6.7. Oqova tizimiga ruxsat etilmagan yomg'ir va erkin qor suvlarini oqizilayotgan, ishlab chiqarish oqova suvlarini «Iste'molchi»lar tomonidan tashlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevral kunida qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari" hamda iflosantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun «Iste'molchi»larga belgilangan tarifa nisbatan 3 (uch) barobar ortiriluvchi koefitsient miqdor tartibida hisoblanadi.

6.8. Oqova suvni chiqarib yuborishning hajmi va tarkibi bo'yicha me'yorlar bilan belgilangan oqizishning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdoridan ortiqcha oqova suvlar va iflosantiruvchi moddalarning chiqarish taqilanganadi.

6.9. Iflosantiruvchi moddalarning normativdan ortiqcha oqizganlik uchun kompensatsiya to'lovlarini hisoblab yozish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 11 oktabrdagi "Tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-ton qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

6.10. Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari hamda iflosantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini hisoblash tartibi asosida amalga oshiriladi, debitor qarzdarlik to'lamagan taqdirda «Iste'molchi» oqova tarmoqlaridan uzib qo'yiladi.

6.11. Hisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlari) to'g'risida «Iste'molchi» yoziladigan e'tiroznomalar to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda «Ta'minotchi»ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznomalar «Iste'molchi»ni to'lov talabnomasi va xujyatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

## VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Taraflar o'rtasida shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar, kelishuv yo'li bilan hal qilinadi. Agarda ikki tomonlama kelishuvga erishilmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchilikiga muvofiq yuridik «Iste'molchi» davlat ro'yxatidan o'tgan sud organlarida ko'rib chiqiladi.

7.2. Ushbu shartnomada belgilangan holatlari yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda Qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

## VIII. Fors – major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlari muzkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek, ushbu holatlari yuzaga keltingan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati

boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatining shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1 Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxdan saqlanadi.

9.2 Shartnoma g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va

31.12 2022 yildan 31.12.2022 yilgacha amal qiladi.

X. Taraflarning yuridik manzili:

«TA'MINOTCHI»

«Farg'ona suv ta'minoti» M.Ch.J

Farg'ona shaxar bo'limi

Manzil: Oq yo'l ko'chasi 102-uy

Tel: +998 73 244-57-32

X/1-2263 8000 0001 9493 5450

Bank: Ipotekabank Fargona filiali

Bank kod: 00544

STIR: 200 144 908

Rahbar:  M.M. Tожибоев

«ISTE'MOLCHI»

Yulduz o'chiruvchisi  
Manzil: A'zamoviy 56

Tel: 73-226-82-62

X/r: 10002186030407074820254003

Bank: Masharay bank

Bank kod: 205 222974


XXTUT: 91340

STIR: 200 144 908

Rahbar: Admotoch S. Sh.

*Yuridik xulosa:*

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy-huquqiy asosi to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq tuzilgan.

Huquqshunos: 

21

2022-yil.